

## KOGNITIV TILSHUNOSLIK HAQIDA NAZARIY QARASHLAR

*Abdullayeva Fotima Komiljon qizi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi, uning tarixi, taraqqiy etishi kabi masalalar organiladi. Ushbu fanga oid tadqiqotchilarining fikrlari umumlashtiriladi. Mavzuni o'rganish jarayonida kognitiv tilshunoslikka oid masalalarga munosabat bildiriladi.

**Tayanch so'zlar:** Til, kognitiv tilshunoslik, kognitiv tahlil, til tizimi, kognitiv grammatika, kognitiv semantika.

Har bir fan tarixida yuksalish davri bo'lganidek, inqiroz bosqichlari ham bo'lishi muqarrar. Bunday holatning yuzaga kelishi o'z - o'zidan olimlardan o'rganilayotgan ob'ektga "yangicha ko'z" bilan qarashni, oldingilaridan farq qiladigan nuqtai nazardan yondashuvni talab qiladi. Binobarin, XX asr boshlarida nazariy fizikada yuzaga kelgan inqiroz uzoq vaqt davom etdi. Tadqiqotlarda yangicha usullarning tadbiq etilishi natijasida tamoman yangi yo'nalişlar, o'zga ko'rinishdagi nazariyalar paydo bo'ldi. Nazariy tilshunoslikda xuddi shunday holat o'tgan asrning ikkinchi yarmida tug'ildi. Tilshunoslikdagi inqirozning asosiy sababi axborot texnologiyalarining rivoji bilan bog'liqdir. Zero, insonning "sun'iy intellekt" tizimiga oid vositalar bilan muloqoti til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay yangicha yondashuvni talab qiladi. Darhaqiqat, aynan shu davrda tilshunoslik fanining turg'unlashgan yoki an'anaviy uslub va xulosalari keskin taraqqiy etayotgan intellektual axborot texnologiyalarini amaliyotida yuzaga kelayotgan savollarga javob bera olmasligi ma'lum bo'ldi. Til tizimini va nutqiy faoliyat mahsuli bo'lgan matn qurilishini shu paytgacha filologik nuqtai nazardan tahlil qilib kelayotgan bu fan doirasi endilikda idrok etish, bilish, tushunish, tahlil qilish faoliyatlariga oid tushuncha va kategoriylar bilan kengaydi. Natijada, tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv fan sohalari bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomonidan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini yana bir soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi

Inson borki, til yordamida aloqa almashinadi, atrofidagilar bilan fikr almashinib borliqni anglaydi. Borliq haqidagi bilimlarini boyitadi. Hozirda tilshunoslik ham taraqqiy etib, unda sotsiolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi tilni turli jihatdan tadqiq va tahlil etishga qaratilgan sohalar vujudga keldi. Shuningdek, ushbu sohada tadqiqot olib borayotgan olim yoki izlanuvchi

lingvist deb emas, balki lingvokulturolog, sotsiolingvist singari nomlar bilan ham atalmoqda.

Tilni kognitiv tadqiq etish mobaynida tilga oid bo'lgan yangidan yangi fikrlar, qarashlar paydo boladi. Ko plab olimlar tilshunoslikda kognitiv yondashuvning paydo bo'lismeni Jorj Miller va Filipp Jonson-Leyrdlaming mashhur "Til va idrok" kitobining chop etilishi bilan bog'lashadi. Kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi ayni paytning ozida kognitiv tilshunoslikka oid Xalqaro konferensiyaga aylangan. 1989-yilning bahorida Duysburgda (Germaniyada) Xalqaro lingvistik simpozium boshlanadi. Ushbu simpoziumning a'zolari [1] Xalqaro kognitiv lingvistika assotsiatsiyasi (International Cognitive Linguistics Association)ni tuzishadi. Shu bilan birgalikda assotsiatsiya faoliyatini yoritib boruvchi "Kognitiv lingvistika" (Cognitive Linguistics) jurnaliga asos solishadi [2]. Keyinchalik kognitiv lingvistika Amerika kognitiv lingvistlar Goldberg,

Kazenhizer, Taylor, Gudson Joan Baybi, Yevropada esa ispan olimlari Kenni Koventri, Pedro Guijaro -Fuentes, ingliz kognitiv lingvistlari Elena Liyevan, Villiam Ogreydlar tomonidan tadqiqotlar obyektiga aylandi. Kognitiv tilshunoslik falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog lagan holda, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik hamda neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy, lingvistik hodisalar bilan chambarchas aloqasini izchil ravishda ilmiy tadqiq etadi.

O'zbek tilshunoslida esa Sh. Safarov, D. Ashurova, A. Mamatov hamda G Hoshimovlar kognitiv lingvist sifatida faoliyat olib bormoqdalar. Kognitiv lingvistika kun sayin rivojlangani sari, unda kogitiv grammatika, kognitiv semantika yangicha tarmoqlar paydo bo'lmoxda.

Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi, deb qayd etadi tilshunos olim Sh. Safarov. Kognitiv tilshunoslikning asosiy maqsadi sifatida til tizimining bilish jarayonidagi ishtiroki hamda ulushini aniqlash belgilanadi. Til birliklarining egallanayotgan bilimning tilda voqelanishidagi ishtiroki va faoliyatning axborotni shakllantirishdagi rolini qay darajada ekanligini aniqlash bu, hech shubhasiz, kognitiv tahlilning bir ko'rnishi hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslik kognitiv mexanizm sifatida inson tafakkuri va tajribasini strukturaviy tartibga soluvchi metaforaga ishora qiladi. Shu bois ham, kognitiv tilshunoslikka lisoniy qobiliyatning tarkib topishini tushuntiruvchi fan sifatida qaraladi. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, til tizimiga kognitiv yondashish tilning yana bir necha oziga xos jihatlarini tadqiq etishga imkon beradi. Bundan tashqari, kognitiv tahlil uchun til tizimida dolzarb ahamiyatga ega bolgan obyekt vazifanibajaradi.

Shunday qilib, tushuncha va hukmning hosil bo‘lishi aqliy faoliyatning turli bosqichlariga oiddir. Ko‘pchilik hukmning birlamchi ekanligini e’tirof etishadi. Haqiqatan ham mantiqiy sub’ekt va predikat birikishidan hosil bo‘ladigan har qanday oddiy hukm (Masalan, Qor yog‘moqda) predmet obrazlarining o‘zaro munosabatdaligi, bog‘lanishidan boshqa hech narsa emas. Tushunchalar munosabati esa ikkilamchi, u nutqiy tafakkur faoliyatining yuqori bosqichida yuzaga keladi. Buning isbotini biz A.F.Losevning mulohazasida ham ko‘ramiz. Uning fikricha, sof hukmda tushunchalar “mazmuniga” hech qanday ishora yo‘q, shu sababli hukmga predmetni uning voqeligidan uzoqlashgan holda tasavvur qilishning uslubi va qonuniyati sifatida qaralishi lozim. Bizningcha, hukm va tushunchani farqlovchi belgi va xususiyatlар haqida gapirish bilan bir qatorda, bu ikki hodisaning dialektik umumiyligka ega bo‘lishini ham unutmaslik lozim.

Xulosa sifatida shuni qayd etishimiz mumkinki, kognitiv tilshunoslik serqirra hodisa bo‘lgan til sistemasini tadqiq etish davomida yangi “manzillarni kashf etish”ga imkon beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Анорбоева С. А. Формирование переводческой компетентности (на примере: бакалавриат и магистратура) //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 337-348.
2. АНОРБОЕВА С. Формирование профессиональной компетентности переводчика //Journal of Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 35-39.
3. ANORBOYEVA, S. (2023). “SHADOWING” METODI ORQALI ISPAN TILI MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARDA TARJIMONLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH . Journal of Research and Innovation, 1(11), 3–6. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jorai/article/view/807>
4. Анорбоева С. А. СИСТЕМА ПОДГОТОВКИ ПЕРЕВОДЧИКОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА И СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПЕРЕВОДЧИКА //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 11-22.
5. АНОРБОЕВА, С., & ШОДИКУЛОВА, ИШ. (2023). К ПРОБЛЕМЕ РЕАЛИЗАЦИИ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(3), 22–26. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/111>
6. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>

7. Aborboyeva S. ON THE CONCEPT OF TRANSLATION COMPETENCE AS A MULTISPECTIVE THEORETICAL CONCEPT //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – T. 8. – №. 8.
8. Solikha, A. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР, 2(3), 9–12.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11178339>
9. ANORBOYEVA, S. (2024). DEVELOPMENT OF TRANSLATION COMPETENCE OF STUDENTS IN SPANISH LANGUAGE COURSES. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 2(3), 9–12. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/1263>
10. Солиха Анорбоева, Нилуфар Сабирова. Современная модель профессиональной компетенции переводчика в контексте системы подготовки переводчиков в вузах. O‘zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika. 2024-1: 110-127.